

Saparbayev Atabek Sharipbayevich

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Urganch filiali katta o‘qituvchisi

Shahanov Bobur Choriyevich

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Urganch filiali tarkibidagi “Lazgi” bo‘limi boshlig‘i

Yusupov Yusupboy Mansurbek o‘g‘li

“Lazgi” bo‘limi Bosh mutaxassisi

Anatatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq milliy cholg‘u sozlaridan biri bo‘lgan, urma-zarbli cholg‘ular oilasiga kiruvchi qayroq cholg‘usining kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlari hamda “Qayroq lazgi” raqsining tarixi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ibtidoiy tuzum, savdo aloqalari, qayroq cholg‘usi, qayroq raqs ijrochilari.

КАЙРАК И ЛАЗГИ

Сапарбаев Атабек Шарипбаевич

Узбекская государственная академия хореографии

Старший преподаватель Ургенчского филиала

Шаханов Бобур Чориевич

Узбекская государственная академия хореографии

Начальник отдела “Лазги” Ургенчского филиала

Юсупов Юсупбой Мансурбекович

Главный специалист отдела “лазги”.

Анатомия: в этой статье рассказывается об истории происхождения и этапах развития инструмента кайрака, одного из узбекских народных национальных инструментов, относящегося к семейству ударных инструментов, а также об истории танца “Кайрак лазги”.

Ключевые слова: примитивный строй, торговые связи, инструмент Кайрака, танцоры Кайрака.

KAYRAK AND LAZGI

Saparbayev Atabek Sharipbaevich

Uzbek State Academy of Choreography

Senior lecturer of the Urgench branch

Shakhanov Bobur Chorievich

Uzbek State Academy of Choreography

Head of the Lazgi Department Urgench branch

Yusupov Yusupboy Mansurbekovich

Chief Specialist of the Lazgi Department

Anatomy: this article tells about the history of the origin and stages of development of the kairak instrument, one of the Uzbek folk national instruments belonging to the family of percussion instruments, as well as about the history of the “Kairak lazgi” dance.

Keywords: primitive system, trade relations, Kayrak instrument, Kayrak dancers.

Keyingi yillarda mamlakatimizda qadimiy va boy madaniy merosimiz, milliy o‘zligimiz, betakror qadriyat va an‘analarimiz, madaniyat va san‘atimizni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqimizning ma‘naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan raqs san‘atini har tomonlama rivojlantirish yosh avlodni Ona vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbek rasq san‘ati haqida gap ketganda O‘zbekiston madaniy merosining elementi sifatida YUNESKOning insoniyatning nomoddiy merosi Rerezentativ ro‘yxatiga kiritilgan Xorazm lazgisiga to‘xtalmaslikning imkoni yo‘q. Bu sehrli raqsning kelib chiqish tarixiga qaraydigan bo‘lsak Lazgi raqsi odamlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Odamlar tomonidan olov kashf qilingach ibtidoiy jamoa tizimida ushbu raqsning elementlari yuzaga kela boshlagan. Lazgi raqsining yaralish hududiga qaraydigan bo‘lsak qadimdan Amudaryoning o‘ng va so‘l qirg‘oqlarida hayot kechigan aholi hisoblanadi. Ibtidoiy tuzum odamlari tomonidan lazgi raqsining ilk elementlari yuzaga kelgan va o‘sha davrda toshlarni toshlarga urgan holda qandaydir ritmik harakatlarni yuzaga keltirishgan deb aytsak xato bo‘lmaydi. Bu toshni toshga urish esa hozirgi kunga kelib Qayroq deb nomlanuvchi cholg‘uning ilk ko‘rinishi yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin va yillar o‘tishi bilan bu qayroq cholg‘u asbobi takomillasha borgan. Qayroq cholg‘usi tosh va temirni bir-biriga urilishidan ohang, kuy chiqaradi va ovozi jarangdor shovqinli cholg‘u sozi hisoblanadi.

Qayroq cholg‘usining yaralishi haqida bugungi kunda turli qarashlar mavjud. Odamlar yashash tarzi va mehnat jarayonida turli ishlarni bajarish moboynda har xil tovushlar chiqarishadi. Misol uchun yog‘ochni-yog‘ochga urib yovvoyi hayvonlarni qo‘rqitishgan va odamlar bir-birlariga signal (belgi) berish uchun toshni toshga urib xabardor qilishgan. Insoniyat ma‘naviyatining shakllanishda tabiat hodisalari, borliqdagi ohang, jismoniy mehnat jarayonidagi taqa-tuqa tovushlar juda katta ro‘l o‘ynaydi. Inson eshitish qobiliyati tufayli atrofdagi turfa tovushlarni jon qulog‘i bilan tinglaydi. “Qadimda ota-bobolarimiz savdogarlik qilish uchun karvon bilan tuyada,

otda tog‘li qumlarda, toshli cho‘llarda yurib yurtimizga turli mol-mulk yetkazib ber. Shu paytda odamlar ot minib tog‘li hududlardan o‘tishganlar va ot minib yo‘lda ketayotib otning oyog‘i tagidagi toshlar shaqir-shuqur, taqa-taq, chaka-chak qilib ovoz chiqarayotganini payqab qolishibdi. Shu paytda ot minib boryotgan yo‘lovchilardan biri otdan tushib otning oyog‘i tagidagi toshlarni olib ko‘rib eshitibdi va tovushlari qandaydir ma’noda quloqqa yoqimli tovush chiqarganligini sezgan. Toshni temirga urilishidan chiqqan tovushga zavqlanib ketgan yo‘lovchi yo‘l-yo‘lakay o‘z sheriklari bilan zerikmasli uchun otni oyog‘i ostidan chiqayotgan tovushga mos taqillatib, hazillashib yo‘l bo‘yi ketishibdi.”¹⁵ Otlarning tuyoqlariga qoqiladigan temirdan maxsus ishlangan taqalarning tog‘larda, toshli yo‘llarda otning harakatlanishi jarayonida chiqaradigan, shunchaki oddiy eshitilgan tovushlar inson qalbiga kirib boradi.

Odamlar tanasiga kirgan tovushlardan ritmik ohang izlay boshlaydi va shu tariqa ritmik jihatlama shakllanib boshlangan keyinchalik esa ritmik cholg‘u so‘zlari bilan birgalikda ijro qilina boshlangan. Odamlar ichidagi ichki hissiyotlarini chiqarish uchun avval temirni temirga urib ko‘rish, yog‘ochni yog‘ochga urib ko‘rishadi, ammo bulardan chiqadigan tovush o‘zlariga yoqmaydi. Kiyinchalik toshni temirga urish bilan juda ohangdor va jiloliy ovozni topishadi va shu bilan qayroq cholg‘usi kashf qilinadi, takomillasha boradi.

Qayroq cholg‘usi ya’ni tosh bilan temir odamzot qo‘lida jonlanadi, tilga kira boshlaydi. Ilgarigi paytlarda qayroq cholg‘usini yakka ijro qiluvchilar bo‘lmagan. Bu cholg‘u asbobida ma’lum qolip va ma’lum jilokorlik ham bo‘lmagan. So‘ngra asta sekinlik bilan shakllana boshlagan va bora-bora qayroq ijrochilari tomonidan qolipga solinib, o‘lchamlar bilan tartiblashtirilib ma’lum bir jozibali kuy chiqaradigan cholg‘u asbobi shakliga keldi.

Tosh bilan temir odamlar o‘rtasida har xil holatlarda ishlatilgan keyinchalik ritmik ko‘rinishlarda ham qo‘llanib, yillar o‘tishi moboynda asta-sekinlik bilan musiqa cholg‘u asboblari qatoriga kira boshlaydi. Davrlar o‘tishi natijasida doira cholg‘u asbobi bilan birga ijro qilina boshladi. Kiyinchalik esa oddiy tosh bilan temir musiqa cholg‘u asboblari qatoriga kiritildi. Bu esa “Qayroq” deb atala boshladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da Qayroq so‘ziga quydagicha tarif biriladi: “Jismi sadolanuvchi urma cholg‘u; Raqqos va raqqosalar qo‘lida shiqillatib o‘ynaydigan bir juft cho‘zinchoq (qayroqqa o‘xshash) tosh”¹⁶ Odatda qayroqni raqs tushuvchi o‘zi chaladi. Raqqos yoki raqqosa qayroqni bir-biriga urilishidan chiqqan ritmik tovushni o‘z raqsiga jo‘r qiladi.

Musiqiy asarlarda qayroq cholg‘usi “Sayra, kuyla” degan ma’nosini bildiradi. Bir parcha silliq tosh va temir tilga kiradi va jo‘sh urib sayray boshlaydi. XVI asrdan boshlab qayroq cholg‘u asbobi Xorazm musiqasida jo‘rovoz bo‘lib ijro qilina boshladi. Qayroq cholg‘u asbobi har-bir ijrochi qo‘lining o‘lchamiga moslab temirdan yasaladi va

¹⁵ G.Matyobova, sharqiya eshjonova “Lazgi” – Urganch 2017-yil 34 bet

¹⁶ “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5 tomlik

tosh ham qo‘lga mos keladiganidan topiladi har bir qayroq chaladigan ijrochining qo‘liga panjalari shakliga moslab bichiladi va yasaladi.



“Qayroq – eng qadimiy cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Chunki bu cholg‘uning tabiatning o‘zida mavjudligi, qolaversa, urma zarbli cholg‘ularning insonlar hayotidagi eng birinchi “sun‘iy cholg‘u”lari ekanligi buni isbotlaydi. Insoniyatning ibtidoiy davrda tabiatdagi ne‘matlarni pishirmasdan, qayday bo‘lsa shunday iste‘mol qilganligi va o‘z navbatida qurol sifatida ham qo‘l ostidagi jismlardan foydalanganligini bilamiz. Xuddi shu jarayonning tabiiy davomi sifatida musiqiy ritm hosil qilishda foydalanilgan ilk moslamalarning biri sifatida dunyoga kelgan qayroq toshlar haligacha milliy cholg‘uchilikda foydalanib kelinayotgani ajablanarlidir. Qayroq odatda ikki juft silliq toshdan iborat bo‘ladi va har ikki qo‘lda ikkitadan ushlab ijro etiladi. Qo‘llarning to‘rt barmoq‘i(ko‘rsatkich, o‘rta, nomsiz va jimjiloq) bitta toshni tutsa, ikkinchi toshni bosh barmoq boshqaradi va toshlarning bir-biriga urilishi natijasida hosil qilinadigan ritmning tezligi va kuchi mazkur barmoqlarning naqadar samarali ishlashiga bog‘liq bo‘ladi. Qayroq toshlarni har ikki qo‘lda bittadan tutib, ularning boshqalarining o‘rnida taxminan qayroqtoshlar kattaligidagi yassi metallardan foydalanish ham kuzatiladi. Bu holatda metallni barmoqlar bilan ushlab turish va boshqarish biroz osonlik tug‘diradi. Qayroq hozirda ko‘proq xorazmcha kuylarda ko‘proq qo‘llaniladi. Xorazmda raqs davomida erkak va ayol raqqos va raqqosalarlar tomonidan ham qo‘llaniladigan holatlar uchraydi”¹⁷

Qayroq cholg‘usining XX asrga kelib har xil o‘lchamlardan ixchamlashib bir xil o‘lchamga ya‘ni qolipga solingan tosh uzunligi 10 sm atroflarida, temir uzunligi esa 16 sm atrofida ixchamlashtirilgan.

Yuksak mahorat bilan ijro etilgan qayroq tomoshabin qalbini cheksiz zavq-u shavqqa, hayajonga solgan Xorazm qayrog‘i qadim-qadimlardan san‘atimiz ardog‘idadir. Uni mahorat bilan ijro etib, rivojlantirib kelgan ustoz san‘atkorlarham bir talay. Bu cholg‘u asbobi tufayli Xorazm musiqa san‘ati yanada boyidi. Qayroq oldinlari

¹⁷ Azatgul Tashmamatova “Xalq cholg‘ulari antologiyasi”- “Musiqa” nashriyoti Toshkent 2014

musiqa asbobi sifatida san'atga kirib kelgan va xalfalar qo'shiqlarida endi o'tirgan joyida qayroqqa o'ynaydigan maxsus ijrochilar paydo bo'ldi. U Xorazm raqsi san'atiga yanada fayz bag'ishlab, ta'sirchanligini yanada orttirdi.

Qayroq ohangining sehri ayollarni ham o'ziga mahliyo etdi. Ayollar qo'liga tosh bilan temirni ya'ni qayroqni olib jo'sh urib kuyladi. Natijada, ayollar orasida ham mashhur qayroq raqsi ijrochilari paydo bo'ldi. Oliya Otamurodova, Saodat qayroq, Mehribon qayroq, Norjon qayroq, Salima qayroq, O'g'il qayroq kabi raqqosalarni qayroq raqsining ustalari deb ayta olamiz. Qayroq cholg'usida ijob etiladigan Xorazmning "qayroq lazgi" raqsiga ham bu cholg'u o'zgacha bir joziba baxsh etadi. Qayroq lazgini yanada boyitdi va unga jo'shqin ruh qo'shdi. XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib qayroq raqsi ommaviy o'ynaladigan bo'ldi. "Norim-norim", "Orazibon", "Ufori navo", "Sehrigiyo" lazgi kuylari qayroqda maxsus o'ynaladigan raqs bo'lib qoldi.

Xorazmning "Qayroq lazgi"si doira jo'rligida shunday o'ynaladi: doira rez boshlaydi. Qayroq "chirr-chirr" etgan qush sadosi rezini boshlab chiqadi. Birdan to'xtab qoladi. Bu "Lazgi" ning tarixiy raqs uslubidir. Doira "lak-lak-lak" deb tovush beradi. Qayroq "tak-tak-tak" deb tovush chiqaradi. Doira "lak-lak-lak-u tam" deb sado beradi. Qayroq "tak-taktak -u tam" deb sado beradi.

Doiraning har bir ohang zarbiga qayroq o'sha ohang zarbida javob kaytaradi. Bu sadolar raqs harakati bilan bajariladi. Doira bilan qayroqning savol-javobi shu tariqa davom etadi. Birinchi bo'lim yopiladi. Keyin doira sadosining murakkab ohanglari boshlanadi. Ohang murakkablasha borgan sari, ritm ham tezlashadi. Bunga karab qayroq ohangi ham jadallashib javob bera boshlaydi. Ikkalasi musobaqa o'ynaydi. Ham kuyda, ham raqsda murakkab uslub yaratiladi."¹⁸

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qayroq o'yini faqat Xorazm diyoriga xos bo'lib, o'zga yurtlarda yo'qdir. Qayroq raqs turi qadim zamonlardan oddiy xalqning turmush tarzi zamirida vujudga kelgan bo'lib, davrlar o'tishi natijasida milliy raqsimizning ajralmas bir bo'lagiga aylangan deb ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.Matyoqubova "Ofatijon lazgi". - T. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. - 64 bet.
2. L.Abdeeva. "O'zbek raqs san'ati". O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent - 1960. 184 bet.
3. Roza Verko. "Khorezm Lazgi: The Sunniest Dance on Earth". 2020-yil <https://voicesoncentralasia.org/khorezm-lazgi-the-sunniest-dance-on-earth/>

¹⁸G.Matyoqubova "Ofatijon "lazgi". - T. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. - 64 bet.

4. G. Matyoqubova. Sh. Eshjonova. “Lazgi”. - Urganch: “Quvanchbek Mashhura”, 2017. - 240 bet.

5. Roza Verko. “Khorezm Lazgi: The Sunniest Dance on Earth”. 2020-yil. <https://voicesoncentralasia.org/khorezm-lazgi-the-sunniest-dance-on-earth/>

6. N.E. Abaykulova. Raqs. - Toshkent. “Turon-Iqbol” nashriyoti. 2018. - 154 bet